

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

TABIIY FANLAR FAKULTETI

5110400- BIOLOGIYA O'QITISH METODIKASI

ta'lim yo`nalishi IV kurs"V" guruhi talabasi

MUXTOROV KARIM HALIM O`G`LINING

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: BARQAROR TARAQQIYOT DASTURI TAMOYILLARI
ASOSIDA NAVOIY VILOYATI ATMOSFERA HAVOSINI MUHOFAZA
QILISH MASALALARI**

Ilmiy rahbar: dots. Shamsidinova G. D.

Navoiy – 2017 yil

M U N D A R I J A

KIRISH.....	3-11
I-BOB. BARQAROR TARAQQIYOT DASTURI TAMOIYILLARI.....	12-24
I.1.BMTNING BARQAROR RIVOJLANISH TARAQQIYOTI DASTURI.....	12-20
I.2.O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BARQAROR TARAQQIYOT DASTURIDA ATROF-MUHIT MUHOFAZASI MASALALARI.....	21-24
II-BOB.ATMOSFERA QATLAMINING NAZARIY ASOSLARI.....	25-27
II.1.ATMOSFERA HAVOSINING UMUMIY TAVSIFNOMASI.....	25-27
III-BOB. BARQAROR TARAQQIYOT DASTURI TAMOIYILLARI ASOSIDA NAVOIY VILOYATI ATMOSFERA HAVOSINI MUHOFAZA QILISH MASALALARI	28-62
III.1.NAVOIY VILOYATINING GEOGRAFIK O'RNI, REL'EFI VA CHEGARALARI, SANOAT ISHLAB CHIQARISH HOLATLARI.....	28-32
III.2. ATMOSFERA HAVOSI IFLOSLANISHINI KUZATISH HOLATLARI.....	32-44
III.3.ZAHARLI MODDALARNING ATMOSFERA HAVOSIDA MUMKIN BO'LGAN MEYYORIY MIQDORLARI.....	44-55
III.4.TABIATNI MUHOFAZA QILISH DAVLAT QO'MITASI TOMONIDAN ATMOSFERA MUHOFAZASIGA DOIR AMALGA OSHIRILADIGAN ISHLAR TAHLILI.....	55-58
III.5.OZON QATLAMI VA UNDAGI TUYNUKGA DOIR FIKR VA MULOHAZALAR.....	58-62
XULOSA.....	63-67
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	68

KIRISH

“Atrof muhitni muhofaza qilish borasidagi barcha chora-tadbirlarni ruyobga chiqarish, ekologiya sohasidagi ko'pgina kamchiliklar va xatolarni bartaraf etish imkoniyatini yuzaga keltiradi. Keng ko'lamdagi ekologik tanglik tahdidini barham toptirish, respublika aholisi, jismonan sog'lom, barkamol avlodning dunyoga kelishi va rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar hamda ekologik jihatidan musaffo hayotiy muhit yaratish imkonini beradi.”

I.A. KARIMOV

Mavzuning dolzarbligi: Atmosfera barcha tirik organizmlarning nafas olishi uchun asosiy manba hisoblanib, uning muhofazasiga yer yuzasidagi barcha insonlar birdek ma'suldir. Atmosfera havosini zaharli gazlar, changlar, qattiq zarrachalar bilan ifloslanishini kamaytirish borasida respublika sanoat korxonalari joylashgan hududlarda fan-texnika yutuqlaridan foydalangan holda chora tadbirlar ishlab chiqilmoqda va amaliy ishlar qilinmoqda. Havoni ifloslanishini kamaytirish maqsadlarida, ayniqsa sanoat korxonalarida ko'pincha balandligi 100 m dan 400 m, gacha bo'lgan trubalardan foydalanishi yo'lga qo'yilgan. Trubalar balandligini oshirish o'sha Yerning o'zida iflos moddalarni uzoq tarqalish zonalariga tushishini ta'minlaydi, ya'ni mahalliy tarqalish miqdorini kamaytiradi. Masalan: 200m.li trubadan tashlanayotgan chiqindi moddalar 75-250 m.li radiuslarga tarqaladi.

Atmosfera havosini muhofaza qilish yer yuzidagi tirik jonzotlarni turli xil kasalliklar, noxush holatlardan asrash ekanligi mavzuning dolzarbligini belgilab beradi. Atmosfera havosining ifloslanishi hayvonlarni, qush va hashoratlarni nobud bo'lishiga sabab bo'lib, atmosfera havosidagi chang zarralari inson organizmiga ham noxush ta'sir qiladi. Changlarning asorati ular tarkibidagi kimyoviy moddalarning biologik faolligi, tabiati, fizik jihatiga bog'liqdir.

Havodagi chang tarkibida qo`rg`oshin, kadmiy, ftor aerzollari organizmga tushub, surunkali kasalliklarni paydo qilishi mumkin.

Atmosferaning ifloslanishiga qarshi kurashish bo`yicha o`tkaziladigan tadbirlar majmuasiga atmosferani ifloslantiruvchi asosiy manbalardan biri bo`lgan avtomobillar uchun yangi turdagi dvigatellar yaratish, ularni texnologik toza yonilg`i turiga o`tkazish, havoni ifloslantiruvchi barcha korxonalarni shahardan tashqariga joylashtirish, ishlab chiqarish korxonalarini bir-biriga yaqin joylashtirishni qat`iyan man etish va kabilar kiradi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi: Barqaror taraqqiyot dasturi asosida tabiatni,atmosfera havosini muhofaza qilish,uni turli chiqindilar bilan ifloslanishini oldini olish mavzusini o`rganishdan ko`zda tutilgan maqsad quyidagicha:

- Inson salomatligi, tabiatdagi ekologik muvozanatni saqlash, respublikani samarali va barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish maqsadida tabiiy resurslardan oqilona foydalanish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;
- Barcha tirik organizmlar uchun nafas olish manbai bo`lgan atmosfera havosi musaffoligiga erishish;
- Jonli tabiat flora va faunasining sistematik turlari boyligi va genetik fondi tozaligini saqlab qolish;
- Ekologik tizimlar, landshaftlar va noyob tabiat ob`ektlari xilma-xilligini saqlab qolish;
- Ekologik xavfsizlikni mintaqaviy va global muammolarini oldini olishni ta`minlash;
- Aholi orasida tarqalishi mumkin bo`lgan turli yuqumli kasalliklarni oldini olish normalarini ishlab chiqish;
- Tabiat ob`ektlari bilan bog`liq madaniy merosni asrab qolishdir.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari: Bitiruv malakaviy ishni bajarish asnosida quyidagi vazifalarni bajarishni o`z oldimga maqsad qilib qo`ydim:

Kirish qismida:

- Mavzuning dolzarbligi, bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalarini aniq tahlil qilish;
- Mavzuning ilmiy, amaliy ahamiyati, ilmiy yangiligi, tadqiqot ob'ekti va usullarini o'rganish;
- Mavzuning o'rganilish darajasining qiyosiy tahlili;
- **Asosiy qism I-bobda:** Barqaror taraqqiyot dasturi tamoyillari;
- BMTning barqaror rivojlanish taraqqiyoti dasturi;
- O'zbekiston respublikasi barqaror taraqqiyot dasturida atrof-muhit muhofazasi masalalari;
- **II-bobda:** Atmosfera qatlamining nazariy asoslari;
- Atmosfera havosining umumiy tavsifnomasi;
- Atmosfera ifloslanishini kuzatish ishlarini olib borish
- **II-bobda:** Barqaror taraqqiyot dasturi tamoyillari asosida Navoiy viloyati atmosfera havosini muhofaza qilish masalalari;
- Navoiy viloyatining geografik o'ri, rel'efi va chegaralari, kimyoviy ishlab chiqarish mahsulotlari;
- Zaharli moddalarning atmosfera havosida mumkin bo'lgan meyyoriy miqdorlari;
- Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan atmosfera muhofazasiga doir amalga oshiriladigan ishlar tahlili;
- Ozon qatlami va undagi tuynukga doir fikr va mulohazalarni o'rganish va tahlil qilish;

Xulosa qismida:

- Atmosfera havosini tozalash va zararsizlantirish usullarini o'rganish;
- Atmosfera havosini tozalash va zararsizlantirishga oid amaliy takliflar keltirish.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy ahamiyati: Ekologiya va barqaror taraqqiyot ta'limini amalga oshirishda BMTning xalqaro hamjamiyatning yadrosi sifatidagi rolini va ahamiyatini saqlab qolishni ta'minlash hayotiy zarurat

ekanligi,xalqaro tashkilotlar olib borayotgan keng miqyosdagi dolzarb muammolar,shahar va qishloqlarni ichimlik suvi bilan ta'minlashdan tortib,hududlarni minalardan tozalash,mehnatkashlar huquqlarini himoya qilish, butun dunyo aholisini ovqatlantirish, havoda tashib ketilayotgan yuklarning xavfsizligini ta'minlash, yer yuzidagi barcha xalqlar va millatlar salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan korxonalarning ishlab chiqarish jarayonini xavfsizligini ta'minlash, har xil turdagi chiqindilar miqdorini kamaytirish, hududlarni tabiiy holatini saqlab qolish haqidagi masalalar ishning ilmiy yangiligini ifodalab beradi.

Mavzuning amaliy ahamiyati.Barqaror taraqqiyot dasturini amalga oshirishda atrof muhitning musaffoligi,ona zaminning pokligi, unga xos bo'lgan tabiiy unsurlar: suv, havo va tuproqning tarkibini ozoda saqlash hozirgi davrdagi eng asosiy muammolardan biri bo'lib sanaladi.Har bir hududning musaffoligi nafaqat mazkur hududga xos bo'lgan, balki tevarak atrordagi boshqa maydonlarni ham ekologik tozaligi uchun xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi hududida juda yirik sanoat korxonalari joylashganligi tufayli,ishlab chiqarish jarayonida ma'lum miqdordagi chiqindilarni atrof muhitga chiqarib, mazkur hududda ekologik muvozanatni izdan chiqaradi. Tabiatni muhofaza qilish Davlat qo'mitasi tomonidan mazkur hududda sanoat korxonalari chiqindilarini nisbatan zararsiz holatga o'tkazish yuzasidan ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda.Ekologik inqirozning keskinlashib,hayot-mamot masalasiga aylanishi bilan jamiyatning rivojlanishini ekologik faoliyat samaradorligiga bog'lash zaruriyati vujudga keldi.Yangi iqtisodiy imkoniyatlar ochayotgan davr yuz millionlab insonlarning, muhimi butun umri davomida toza atmosfera havosidan nafas olishi,qulay atrof- muhit sharoitida yashashi uchun haqli ekanligi inson huquqlari deklaratsiyasida aniq bayon qilib berilgan. Bituruv malakaviy ishi sifatida mazkur mavzuni tanlashimdan asosiy maqsad tabiatni muhofaza qilishga ozgina bo'lsa o'z hissamni qo'shishdir.

Tadqiqot predmeti va ob’ekti. Bitiruv malakaviy ishi uchun tadqiqot ob’ekti sifatida, hozirgi globallashuv davrida amalga oshirilayotgan yoki muhokama qilinayotgan chuqur o’zgarishlarni, xalqaro hamjamiyat ehtiyojlariga javob berishi zarur bo’lgan maqsadlarning aniqligi, amaliy ish qilish imkoniyatining mavjudligiga ishonitiradigan yagona xalqaro tuzilma- bu Birlashgan Millatlar Tashkiloti Barqaror Taraqqiyot Dasturining amaliy faoliyat jarayoni asos qilib olindi. Mazkur tashkilot tomonidan amalga oshirilayotgan xalqaro miqyosdagi ishlar, olinayotgan natijalar tahlil qilinib, atrof- muhitni musaffolini ushlashdagi harakatlari e’tirof etildi.

Global ekologik muammolarning o’ziga xosligi faqat oziq-ovqat mahsulotlarining yetishmasligi, atrof-muhitning ifloslanishi muammosi yoki tabiiy resurslarning tugashidagina iborat bo’lmay, XXI asrda ichimlik suvi ham keskin kamayib bormoqda. Ko’plab miqdordagi yoqilg’ilarning yonishi, o’rmonlarning kesilib ketishi, okeanlarning neft mahsulotlari va pestisidlar bilan ifloslanishi – atmosferada kislorodning kamayishiga olib keladi.

Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi: Bitiruv malakaviy ish 68 sahifadan iborat bo’lib, kirish, ikkita bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro’yxatidan iborat.

MAVZUNING O’RGANILISH DARAJASINING QIYOSIY TAHLILI

Ekologiya va barqaror taraqqiyot ta’limi Dasturini amalga oshirish BMT hamda butun insoniyat oldida turgan eng asosiy muammolardan biri bo’lib, mazkur muammoni bartaraf qilish mavzuga doir turli adabiyotlar, ommaviy axborot vositalari orqali bayon qilinayotgan materiallarni o’rganish orqali amalga oshiriladi. Bitiruv malakaviy ishimda quyida ekologik ta’lim tarbiyaga oid adabiyotlarning qiyosiy tahlili keltirilgan.

T.Mirzayev, Z.G’ofurov Tabiatni e’zozlash-umumbashariy muammo, Toshkent, ”Yangi asr avlodi” 2001 yil. Ushbu asarda tabiatni e’zozlash hozirgi davrning eng dolzarb, umumbashariy muammolaridan biri ekanligi xususida fikr

yuritiladi. Tabiat insoniyat uchun moddiy boyliklarning birinchi manbai sifatida ham ,ma'naviy –ruhiy barkamollikning asosi sifatida ham o'zining g'oyat zo'r ahamiyatini yuqotmaydi. Tabiatni sevis, suv, tuproq va havoni e'zozlash, dunyodagi jami ezgu narsalarni butun saqlash ajdodlardan avlodlarga qolgan merosdir. Inson tabiat bilan uzviy aloqadadir. Issiq va sovuq ham, qor va yomg'ir ham, suv va havo ham, o't-o'lanlaru, parranda, sahro, dasht ham barchasi tabiiy boyliklar bo'lib, inson uchun o'ta muhim va zarurdir.

A.To'xtayev, Ekologiya, Toshkent, 2007 yil. Mazkur adabiyot tabiiy fanlar yo'nalishidagi talaba va o'qituvchilar uchun mo'ljallangan bo'lib, ekologiya fani, tadqiqot usullari, tabiatdagi eng muhim global muammolar, tabiiy muhitdagi ekologik muvozanatni bo'zilishiga olib kelayotgan sabab va oqibatlar to'g'risida fikr yuritilgan. Ekologik ta'lim tarbiyaga oid ajdodlar tajribalarini davom ettirish va rivojlantirish davr talabidir.

N.Xolmurodov. Atrof muhitni muhofaza qilish, Navoiy 2006 yil Mazkur adabiyotda atrof muhitni muhofaza qilishga oid ilmiy ma'lumotlar, Navoiy viloyatidagi ekologik muammolar, ularni bartaraf qilishga qaratilgan amaliy takliflar to'g'ridagi fikrlar bayon qilingan. Ekologik muammolar insoniyat tarixining biron-bir bosqichida hozirgi davrdagidek dolzarb bo'lgan emas, bu muammolar keskinlashib, atrof muhitga juda katta zarar yetmoqda, iqlim bo'zilmoqda. Eng yomoni kishilarning tabiiy hayot va faoliyatiga putur yetmoqda.

D.Yormatova Sanoat ekologiyasi, Toshkent, 2007 Mazkur adabiyotda sanoat korxonalarining faoliyati natijasida kelib chiqadigan ekologik muammolar, ularni bartaraf qilish yollari haqida tikrlar keltirilgan.

Baratov P. va boshqalar "Tabiatni muhofaza qilish". T. "O'qituvchi", 1995 yil. Tabiatning katta ahamiyatga ega ekanligi, undan nafas olish, beminnat ne'matlaridan iste'mol qilish, qurilish materiallari sifatida ishlatish, maishiy kundalik hayotda foydalanash buning yaqqol isbotidir. Har bir tabiiy ne'matni o'z

o'rnida va vaqtida kerakli miqdorda sarf qilinsa, tabiatdagi ekologik muvozanat buzilmaydi.

To'xtayev A, Hamidov A “Ekologiya asoslari va tabiatni muhofaza qilish” T, “O'qituvchi”, 1994 yil. Ekologik muammolarning dolzarbligi, bugungi ayniqsa yaqqol ko'rinib bormoqda. Atmosfera havosining muhofaza qilish faqatgina, ishlab chiqarish korxonalarining emas balki har bir insonning ham oldiga quyilgan maqsadga aylanishi kerak. Atmosfera changlarining tirik organizmlarga salbiy ta'siri haqida ma'lumotga ega bo'lgan, har bir inson o'z atrof- muhitini tozalashga harakat qiladi. Muhitning sofliigi insonning sihat - salomatligining garovi ekanligini hech qachon yoddan chiqarmasligimiz darkor.

To'xtayev A.V. “Ekologiya”. T, “O'qituvchi”, 1998 yil. Omillar tirik organizmlarga to'g'ridan to'g'ri ta'sir etuvchi muhitning ayrim bir tarkibiy qismidir. Ekologik omillar tirik organizmlarning tabiatga moslashishini belgilovchi sharoit sifatida qaraladi. Ekologik omillar juda xilma xil bo'lib, tabiatda tirik organizmlarga bir butun yoki birgalikda ta'sir etadi. Ular ekologik, fiziologik, genetik va hokozolar. Ekologik omillarni tasniflashda uning tabiati, harorat, sho'rlanish, bosim, muhitining reaksiyasi va boshqalar doimo o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi.

Rafiqov A.A. “Tabiatda ekologik muvozanat”. T, “Fan”, 1990

Tirik organizmlarning tashqi muhitda tarqalishi, havo, suv va tuproqning muhit sifatida tirik xususiyatga ega ekanligi mazkur adabiyotda to'liq yoritib berilgan. Har bir hayot muhiti o'z navbatida organizmlar yashashi uchun har xil yashash joylaridan iborat. Masalan, suv muhiti quyidagi yashash joylari sifatida uchrashi mumkin: chuchuk va sho'r suv, ko'lmak va oqar suv, chuqur va sayoz, iliq va sovuq va hokozolar. Yashash joyining o'zgarishi tirik organizmlarga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Havo, suv va tuproq muhitlarining ifloslanishi, undagi tirik organizmlarga salbiy ta'sir ko'rsatib, ularning yashovchanligini pasaytirib yuboradi.

A.Ergashev, T. Ergashev, Ekologiya, biosfera va tabiatni muhofaza qilish. Mazkur adabiyotda atrof-muhit tushunchasi, muhitning tirik organizmlarga ta'siri, tirik organizmlarning muhit omillariga ta'siri, atmosfera ifloslanishining inson salomatligiga ta'siri, biologik zahiralash, tabiatning radioaktiv ifloslanishi, tabiatni muhofaza qilishda ekologik ta'lim tarbiyaning o'rni haqida ma'lumotlar yoritilgan.

G.Shamsidinova, D.Karimova Ekologik muammolar, Navoiy, 2006 yil. Mazkur adabiyotda umumiy ekologik muammolar, ularni oldini olish hamda echimiga oid fikrlar keltirilgan. XXI asrda ham inson bilan tabiat o'rtasidagi munosabat buzilib, ekologik talofatlarga duch kelinmoqda. Orol dengizining qurishi, iqlim o'zgarishi, sahrolar kengayishi, yer haroratining ko'tarilishi, ichimlik suvi yetishmasligi, sanoat chiqindilarini ko'payishi va hokozolar shular jumlasidandir.

G.Shamsidinova, D.Karimova Kimyoviy ekologiya, Toshkent, "Vorish-nashriyot" 2008 yil. Mazkur adabiyotda ekologiya fanining tavsifi, fanga oid huquqiy meyoriy hujjatlar, tabiatni muhofaza qilishga oid qonunlar, tabiiy komponentlar: atmosfera, gidrosfera, litosfera va biosfera qatlamlarini tuzilishi hamda ularni muhofaza qilish, ekologiya fanini o'qitish jarayonida qo'llaniladigan hikmatli so'zlar, muqaddas hadisi –sharif hamda testlardan namunalar keltirilgan.

G.Shamsidinova, D.Karimova, A.Ilyasov. Hidroekologiya, Toshkent, "Liderpress" nashriyoti, 2009 yil. Mazkur adabiyotda gidrosfera qatlamiga oid ma'lumotlar, dunyo okeanini muhofaza qilish va unda uchraydigan muammolar, respublikadagi mavjud suv havzalaridagi ekologik holatlar to'g'risidagi fikrlar bayon etilgan. Aholi va xalq xo'jaligi ehtiyojlari uchun suvdan oqilona foydalanish, uni ifloslanish va kamayib ketishdan saqlash lozimdir.

G.Shamsidinova, D.Karimova Kimyoviy ekologiya, Toshkent, "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2010 yil. Adabiyot O'z. R. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Muvofiqlashtiruvchi Kengashining taklifiga asosan qayta nashr qilinib, unda ekologiya faniga oid huquqiy meyoriy hujjatlar, tabiatni muhofaza

qilishga oid qonunlar, tabiiy komponentlar: atmosfera, gidrosfera, litosfera va biosfera qatlamlarini tuzilishi hamda ularni muhofaza qilish, ekologiya fanini o'qitish jarayonida qo'llaniladigan hikmatli so'zlar, muqaddas hadisi –sharif hamda testlardan namunalar keltirilgan. Tabiatdagi ekologik muvozanatni saqlash maqsadida atrof muhit muhofazasini tashkil etish va uni amalga oshirishda yoshlarning nazariy va amaliy bilimlarni oshirish hamda uni insonlar qalbiga singdirish lozimdir.

I-BOB. BARQAROR TARAQQIYOT DASTURI TAMOIYILLARI

1.1.BMTNING BARQAROR RIVOJLANISH TARAQQIYOTI DASTURI

Ekologiya va barqaror taraqqiyot ta'limi hozirgi davrning eng dolzarb masalalaridan bo'lib, o'qitish jarayonida,tabiat, jamiyat va inson munosabatlari uzviy aloqada ekanligi, tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish lozimligini yosh avlodlar ongiga to'g'ri yetkazish muhim jarayon hisoblanib,Respublikamizning birinchi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganlaridek,XX asrning oxiri,XXI asrning boshlarida "Asrlar tutash kelgan pallada butun insoniyat,mamlakatimiz aholisi juda katta ekologik xavfga duch kelib qoldi. Buni sezmaslik,qo'l qovushtirib o'tirish o'z-o'zini o'limga mahkum etish bilan barobardir.Afsuski hali ko'plar bu muammoga beparvolik va mas'uliyatsizlik bilan munosabatda bo'lmoqdalar".1

Hozirgi globallashuv davrida ekologik muammolar bilan shug'ullanuvchi xalqaro tashkilotlarning tezkor holatdagi faoliyati ayniqsa juda muhimdir.Mazkur tashkilotlar Birlashgan Millatlar Tashkiloti tasarrufiga birlashib,butun jahonda tinchlik va taraqqiyot borasidagi orzu- umidlarning amalga oshish imkoniyati mavhum bo'lgan ko'plab g'oyat murakkab vazifalarni amalga oshirish uchun harakat qilmoqdalar.Demokratik tamoyillarni keng quloq yozdirish,erkinlikning misli ko'rilmagan imkoniyatlarini ochish. shuningdek, globallashuv davri bilim va axborotlarni keng tarqatish,dunyoning har bir burchagida taraqqiyot uchun imkoniyatlar yaratish bilan butun dunyoni barkaror rivojlanish sari yunaltiradi.

Globalashuv jarayonida BMT, chuqur o'zgarishlar jarayonini boshidan kechirayotgan, mazkur o'zgarishlarni amalga oshirishni tanqidiy baholab,yangilanib borayotgan dunyoning ko'plab talablariga javob berishda o'zining markaziy rolini yanada oshirishga harakat qilmoqda.Bosh Assambleya qarshisida puxta ishlab chiqilgan islohot rejalarini qabul qilish,mustahkam moliyaviy baza yaratish maqsadida Xavfsizlik Kengashi va Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengashlarni isloh qilinmoqda.Xalqaro tashkilotlarning turli sohadagi hamkorlik faoliyati barcha mamlakatlarni iqtisodiy jihatdan baquvvat, ekologik jihatdan barqaror, insonlarni sog'lom,aholi turmush darajasining yuksak bo'lishiga olib

keladi. 1987 yilda Norvegiyalik olim Gru Xarlem Bruntland boshchiligidagi BMT Bosh Assambleyasiga fakat iqtisodiy o'sishga asoslangan muqobil yondashuv sifatidagi "Barqaror taraqqiyot" konsepsiyasi taqdim qilingan edi. Yangi Konsepsiya kelgusi avlodlar imkoniyatini xavf ostida qoldirmasdan o'z shaxsiy ehtiyojlarini qondirishi bilan hozirgi zamonga mos keladi

1.2.O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BARQAROR TARAQQIYOT DASTURIDA ATROF-MUHIT MUHOFAZASI MASALALARI

O'zbekiston Respublikasida atrof -muhit muhofazasi masalalari juda dolzarb bo'lib, mustaqillik e'lon qilingunga qadar tabiiy atrof-muhitni himoya qilish va tabiiy resurslardan foydalanish bo'yicha ishlab chiqilgan qonun va me'yoriy hujjatlarga sobiq ittifoq manfaatlari doirasida amal qilinar edi. Atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha boshqaruv va nazorat ishlari bir necha tashkilotlar vakolatiga yuklatilgan bo'lib, tabiatni muhofaza qilish tashkilotlari bir tizimga birlashmagan, aksariyat hollarda bir-birlari funksiyalarini takrorlashar, kuch va mablagiardan foydalanish tarqoq holda edi. Natijada tabiatni muhofaza qilish ishlarining samaradorligi pasayib ketdi.

Respublikada quruqlikning 1/3 qismidan ko'prog'i qurg'oqchil hududlar hisoblanadi, bunday yerlarning maydoni so'nggi yillarda antropogen ta'ziy ostida yanada kengayib bormoqda. Hozir dunyoning 628 mln. (14%) aholisi shu tufayli zarar ko'rmoqda, ya'ni yerlarni "cho'llanishi" insoniyat oldidagi umumbashariy ekologik muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

1977-yilda Nayrobida cho'llanish muammosiga bag'ishlangan konferensiyada 95 mamlakatdan vakillar ishtirok etib, unda yerlarning "cho'llanish" muammosi keskinlashib borayotganligi, buning asosiy sababi yer resurslaridan nooqilona foydalanish ekanligidir deb e'tirof etildi. Konferensiyaning asosiy natijalari BMTning 33 (1977) sessiyasida ma'qullandi. Yerlarni cho'llashishi bilan kurashish harakatini amalga oshirish YUNEP va Atrof-muhit muhofazasi bo'yicha muvofiqlashtiruvchi kengash zimmasiga, keyinchalik BMTning ma'muriy muvofiqlashtiruvchi kengashiga yuklatildi.

II-BOB.ATMOSFERA QATLAMINING NAZARIY ASOSLARI

II.1. ATMOSFERA HAVOSINING UMUMIY TAVSIFNOMASI

Atmosfera – Yerning gazsimon qatlami bo'lib, Yerning landshaft qobig'i hayotida katta rol o'ynaydi. Atmosfera yer po'stiga ta'siri fizikaviy, kimyoviy, biologik bo'lib, yer yuzasida issiqlik va namlikni tartibga solib turadi. Atmosfera Yerning himoya qobig'i sifatida tirik organizmlarni turli ultrabinafsha nurlar va kosmosdan tushadigan metroitlarning zarralari ta'siridan himoya qiladi. Atmosfera havosining ifloslanish darajasi bugungi kunda o'zining ehg yuksak cho'qqisiga yetdiki, haqiqatdan ham buni inkor etib bo'lmaydi. Insonning tabiat ustidan hukmronligi atmosfera muvozanatini buzilishiga sabab bo'lmoqda. Atmosfera bo'lmaganda yer yuzasi kunduzi $+100^{\circ}\text{C}$ qizigan kechasi -100°C sovugan bo'lar edi. Hozirgi vaqtda yer yuzasining o'rtacha temperaturasi $+14^{\circ}\text{C}$ ga tengdir. Atmosfera Quyosh issiqligining Yerga o'tkazib, issiqlikni saqlaydi hamda nur tashish uchun o'tkizuvchanlik vazafasini o'taydi. Atmosfera biosferada moddalar va issiqlik almashnuvida asosiy rol o'ynab, landshaftlarning vujudga kelishida va ularning taraqqiyotida ahamiyati kattadir.

Quyosh, shamol energiyasi, atmosfera havosi va yog'in- sochin iqlim resurslari bo'lib, quyoshdan fazoga juda katta miqdorda issiqlik energiyasi tarqaladi. Yer yuzasining har bir kvadrat kilometr maydoniga 2500000 ot kuchiga teng energiya(Quyoshning umumiy nurlanish quvvati $4 \times 10^{26}\text{Vt}$) tushadi. Quyosh energiyasi atmosferasining yuqori qatlamlarida yutilib, yer yuzasiga juda oz miqdorda yetib keladi. Insoniyat Quyosh energiyasini o'z ehtiyoji uchun qadimdan foydalanib kelgan, AQSH Yaponiya va Fransiya kabi xorijiy davlatlarda hozirgi kunda ko'plab Quyosh suv isitkichlari ishlaydi.

Yerni qurshab olgan havo qatlami asosan azot (78,09 %), kislorod (20,95%) dan iborat bo'lib, ular atmosfera gaz tarkibining 99 foizini tashkil etadi (azotning atmosferadagi massa ulushi 75,5%, kislorodniki 23,1%) qolgan 1 foizi esa boshqa (argon, karbonot, angidrid, neon, vodorod, geliy, kripton, ksenon, ammiak, ozon) kabi moddalar mavuddir.

III-BOB. BARQAROR TARAQQIYOT DASTURI TAMOIYILLARI ASOSIDA NAVOIY VILOYATI ATMOSFERA HAVOSINI MUHOFAZA QILISH MASALALARI

III.1.NAVOIY VILOYATINING GEOGRAFIK O'RN,REL'EFI, CHEGARALARI VA SANOAT ISHLAB CHIQUARISH HOLATLARI

Navoiy viloyati yuksak darajada rivojlangan sanoat ishlab chiqarishi, xususan kimyoviy korxonalari bilan Respublikada o'z o'rniga egadir. Sanoat korxonalarida turli kimyoviy moddalar ya'ni, kislotalar, ishqorlar, tuzlar, mineral o'g'itlar, polimerlar, sintetik tolalar va boshqa mahsulot turlari ishlab chiqariladi. Kimyo sanoati ishlab chiqaradigan mahsulotiga, foydalanadigan xom ashyosiga, shuningdek, texnologik jarayonlariga qarab bir necha tarmoqqa bo'linadi. Kimyo sanoatining o'ziga xos xususiyati shundaki, shu sohaga taalluqli korxonalar bir-birlariga uzviy bog'liq holda faoliyat yuritadilar. Ularning ishlatadigan xom ashyolari ham ko'pincha mazkur korxonalar tomonidan ishlatiladi. Bunda xom ashyodan kompleks foydalanish, yani bir korxona faoliyati natijasida hosil bo'lgan oraliq mahsulotdan boshqa korxona foydalanishi mumkin bo'ladi. Kimyo sanoatining rivojlanishi bilan xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish ham sezilarli o'sdi. Bu o'z-o'zidan aholi turmush farovonligining yuksalishiga olib keldi, ammo masalaning boshqa bir jihatini ham borki bu hammani tashvishga solmoqda. Kimyo sanoatining rivojlanishi, kimyoviy moddalardan keng foydalanish, sanoat chiqindilari, kimyoviy ishlab chiqarish chiqitlarining ko'payib ketishi tabiiy muhitning zaharlanish darajasining yuqori bo'lishiga olib keldi. Biroq, jamiyat taraqqiyotini, inson ehtiyojlari muammosini hal etishni kimyo fanisiz tasavvur qilib bo'lmaydi, shuningdek, xo'jalik faoliyatida kimyoviy birikmalardan foydalanishdan voz kechib bo'lmaydi. Demak, barcha diqqat e'tiborni ularni ishlab chiqarish me'yoriga, tartib qoidalariga va ulardan ekologik hamda ijtimoiy omillarni hisobga olgan holda oqilona foydalanishimizga qaratishimiz zarur bo'ladi. Shuning uchun Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan zaharli kimyoviy moddalarning ruxsat etilgan me'yoriy miqdorlari ishlab chiqilgan.

III.2.ATMOSFERA HAVOSI IFLOSLANISHINI KUZATISH HOLATLARI

Atmosfera havosining ifloslanish holatini kuzatish maxsus kuzatish postlarida olib borilib, buning uchun maxsus joylar tanlab olinadi va havoni o'lchash qurilmalari maxsus binoga yoki avtomobilga joylashtiriladi. Kuzatish postlari uch xil kategoriyaga mansub bo'ladi: statsionar (turg'un), marshrutli va harakatdagi post.

Statsionar postlarda atmosferani ifloslantiruvchi zaharli moddalar miqdori uziuksiz qayd qilib boriladi va kelgusi tahlillar uchun havodan namunalar doimiy ravishda olib turiladi, Bu postlar uzoq muddatga mo'ljallangan bo'lib, xizmat ko'rsatish kurilmalari va uskunalari Davlat nazorati qonunlariga asosan quriladi hamda zamonaviy texnika bilan jihozlanadi. Birinchi turdagi postlar shuriday joyga joylashadiki, alohida tashlanayotgan ifloslantirish manbalari butun atmosferani ifloslantirib yubormaydi. Bu yerda havo aralashmalar ta'sirida yana qayta aniqlanadi. Turg'un postlarda doimiy kuzatish to'rt dastur bo'yicha olib boriladi: to'liq (t), yarim to'liq (ya.t), qisqartirilgan (q) va sutkali (s).

III.3.ZAHARLI MODDALAMING ATMOSFERA HAVOSIDA MUMKIN BO'LGAN MEYYORIY MIQDORLARI

Havo, atmosferani ifloslanishdan va har xil chiqindilar bilan zararlanishdan muhofaza qilish muammosini hal qilish, uning ifloslanish manbalarini o'rganishni, oldini olishni talab qiladi. Biz bilamizki, atmosfera havosi tabiiy va sun'iy ravishda ifloslanadi. Respublikamizda atmosfera havosini muhofaza qilishning dolzarbligi uni muhofaza qilish, ifloslanishining oldini olish, O'zbekiston Respublikasining Xalqaro tadbirlarda ishtirok etish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi hamda 1996- yil 27 dekabrda qabul qilingan "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunlari mazkur masalaga asos qilib olingan va yoritilgan. Atrof muhitning ekologik holati va hududlar ekologik muvozanatining

buzilishi ko'p jihatdan atmosfera havosining tarkibi buzilishiga hamda uning turlari ishlab chiqarish ta'siridagi salbiy o'zgarishlarga bevosita bog'liq. Bu o'zgarishlar sayyoraviy, regional va topologik (mahALLiy) masshtabda ro'y beradi. O'zbekiston hududining o'ziga xos tabiiy xususiyatlari, uni ekologik xo'jalik rayonlariga ajratishga va har bir mintaqa yer, atmosfera havosining ifloslanish potensialini aniqlashga imkon beradi. atmosfera havosini bunday ilmiy bashorat qilishda asosiy shamollaming takrorlanishi, qancha vaqt surunkali esishi turbulentlik koeffitsiyentini va boshqa xil ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Shunda yer yuzasida havoning ifloslanish potentsiali (AHIP) Respublika hududida 2,4 dan 3,3 gektargacha o'zgarishi qayd qilinadi. Chunonchi, bu ko'rsatkich Ustyurtda 2,4-2,7 gektar, Quyi Amudaryoda 2,6- 3,0 gektar, Qizilqumda 2,7 gektar Quyi Zarafshonda 2,7- 3,0 gektar, Chirchiq, Ohangaron tunanida 3,0-3,3 gektar, Mirzacho'lda 2,7- 3,3 gektar, Farg'ona vodiysida 3,0- 3,3 gektar, Samarqand rayonida 2,7- 3,3 gektar, Qashqadaryo havzasida 2,7- 3,3 gektarga teng.

III.4.TABIATNI MUHOFAZA QILISH DAVLAT QO'MITASI TOMONIDAN ATMOSFERA MUHOFAZASIGA DOIR AMALGA OSHIRILADIGAN ISHLAR TAHLILI

Atmosfera havosini muhofaza qilish yuzasidan Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan kam chiqindili hamda chiqindisiz sanoat korxonalarini tashkil qilish to'g'risida maxsus deklaratsiya qabul qilingan. Bu hujjat asosida BMT Yevropa iqtisodiy hay'atining chiqindisiz va kam chiqindili korxonalar tashkil qilish faoliyatida ko'p mamlakatlar qatnashmoqda. Amaliyot bu sohada dunyo mamlakatlari birgalikda faoliyat ko'rsatishi muhimligini ko'rsatadi. Masalan, hozir juda ko'p sanoat korxonalarida chiqindisiz yoki kam chiqindili texnologik jarayonlar amalda joriy etilgan. Diqqatga sazovor texnologik jarayonlar amalda joriy etilgan. Diqqatda sazovor texnologik jarayonlaridan yana biri, ishlab chiqarish jarayonlarida ishlatiladigan zararli moddalarni zararli bo'lmagan moddalarga almashtirishdir. Xomashyolarni zararli moddalardan tozalash katta ahamiyatga egadir. Masalan yoqiladigan gazdan oltingugurt, toshko'mirdan oltingugurt kolchedanini seperatsiya yo'li bilan ajratib olish kabi

tadbirlar atmosfera havosini ifloslanishini ancha kamaytiradi. Bu borada ayrim sanoat korxonalarida mahsulot ishlab chiqarish vaqtida havoga ko'p miqdorda chang chiqishini kamaytirish uchun chang tarqatuvchi manbani nam materiALLar bilan chegaralab qo'yish ham changlanishni ancha kamaytirishi mumkin. Masalan, quruq sement ishlab chiqarishning namli sement ishlab chiqarishga o'tkazilishi havoga uchadigan chang zarralarining kamayishiga yordam beradi.

Texnologik jarayonlarda tabiiy yonilg'i yondirishdan elektr toki bilan qizdirishga o'tish chiqindilarning kamayishiga olibkeladi. Texnologik jarayonlarning berkligini ta'minlash, mahsulotlarni bir joydan ikkinchi joyga transportyor lentalari vositasida jo'natish yaxshi samara beradi.

III.5. OZON QATLAMI VA UNDAGI TUYNUKGA DOIR FIKR VA MULOHAZALAR

Ozon (O_3) kislorodning ALLotropik shakl o'zgarishi bo'lib, atmosferada hajm jihatidan $2 \cdot 10^{-8} \%$ ni tashkil qiladi. Yil fasllari, geografik kenglik, joining balandligi va boshqa sharoitlarga qarab ozon miqdori turli joylarda turlicha bo'ladi. Ozon stratosfera va mezosferada birmuncha ko'p. Bu oraliq ozonosfera deyiladi. Bunda ozonning konsentrasiyasi $4 \cdot 10^{-7} \text{ g/m}^3$. Ozonning miqdori 20-25 km balandlikda eng ko'p bo'lib, undan yuqori va pastdki qatlamlarda tez kamayadi. Agar butun atmosferadagi ozon 0°C harorat va 760 mm. simob ustuni bosimi sharoitida bir qatlamga to'plansa, uning qalinligi 3 mm bo'ladi. Ana shu kichik qalinlikdagi ozon yerdagi hayotni xavfli radiatsiyadan saqlaydi. Ozon tuynigining hosil bo'lishi atmosferaning ifloslanib borayotganligi bugungi kundagi achinarli, qolaversa dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Ozon gazi to'plangani sari sekin-asta atmosferaning yuqori qismida ozon qatlami yuzaga kelgan. Atmosferadagi ozon ekran qatlami sifatida yer sirtini tirik organizmlar uchun xatarli bo'lgan ultrabinafsha nurlar radiatsiyasidan saqlaydi. Radioaktiv ifloslanish boshqa ifloslanishlardan farq qiladi va nurlanish kasALLigini keltirib chiqaradi. Biosferaning hamma joyida radioaktivlikning tabiiy manbalari mavjud.

XULOSA

Tashqi muhit ekologik holatini barqaror saqlash insoniyatning buguni va ertasi uchun eng dolzarb muammolardan biri bo'lib, u sog'lom avlod – sog'lom kelajak bo'lishini ta'minlaydi. Atrof tabiat musaffo, ekologik holat barqaror bo'lganda tabiatdagi tiriklikning yashashi va hayot kechirishi uchun eng qulay sharoit yaratiladi. Atmosfera tarkibidagi erkin kislorod miqdorining normada bo'lishi, havoning tozaligini belgilab, havoning ifloslanishi o'simliklarning kasallanishi va tuproq tarkibidagi tirik organizmlarning nobud bo'lishiga olib keladi. Respublikada atmosfera havosini muhofaza qilishga doir olib borilayotgan tadbirlar, tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi tomonidan ekologik muvozanatni barqarorlashtirishga oid olib borilayotgan ishlar alohida ahamiyatga molikdir. Ozon quyosh nurlari ta'sirida karbonat, angidrid, azot oksidi va boshqa gazlar ishtirokida hosil bo'lib, ozon qatlami sohalarida elektromagnit to'lqinlarini tanlab yutish xususiyatiga ega.


Quyosh spektri infraqizil, ko'rinadigan, ultrabinafsha qismlardan iborat bo'lib, issiqlik tarqalishi tirik organizmlarning hayot jarayonlari uchun zarurdir. Lekin yer yuzasida yashovchi tirik organizmlarning biologik vazifalarini bajarishi uchun harorat me'yori ham mavjud bo'lib, ozon qatlami infraqizil nurlarining bir qismini, yutib, ma'lum darajada qulay haroratni saqlab turadi.

Tabiatda yashil o'simliklar tufayli fotosintez jarayoni vujudga kelib, u yerdagi hayotning asosiy energiya manbaidir. Chunki Yer sharining yashil o'simliklari yiliga fotosintez jarayoni sababli 177 mlrd tonna organik modda hosil qilib, shundan 122 mlrd tonnasini quruqlik, 55 mlrd tonnasini esa okean o'simliklari vujudga keltiradi. Fotosintez tufayli vujudga keladigan bir yillik kimyoviy energiya dunyoda ishlab turgan hamma elektr stansiyalar quvvatidan 100 marta ortiqdir.

Hozirgi zamonda atmosfera havosini sanoat korxonalaridan chiqayotgan zaharli gazlar bilan ifloslanishni kamayish maqsadida ko'pgina issiqlik elektr

stantsiya parida, mineral xomashyolarni qayta ishlash zavodlarida balandligi 100 m, dan 400 m, gacha bo'lgan trubalardan foydalanilmoqda. Bu tadbir aytarli talab darajasida samara ber moqda, lekin atmosfera havosi tarkibida hosil bo'layotgan chiqindilar miqdorini chegaraviy mumkin bo'lgan miqdorgacha tushirib turish imkonini yaratmoqda. Keyingi yillarda atmosfera havosini zaharli gazlar bilan ifloslanish darajasi ayniqsa sanoat korxonalarida ko'payib bormoqda. Aviatransport vositalarining ko'paytirish, aholi sonini ko'paytirish, korxonalarni yangi-yangi turlarini qo'shmoq joylarida ishga tushirishi, ishsizlar sonini kamaytirish maqsadida hamqorlikda qo'shma korxonalar sonini ortib borishi atmosfera havosini ma'lum darajada ifloslanishiga olib kelmoqda.

Atmosfera havosi tabiiy va antropogen yo'l bilan ifloslanib, atmosferaga tushayotgan har qanday zaharli modda ma'lum vaqt davomida havoda tarqaladi. Havoga tashlanayotgan SO_2 gazi havoda turishi natijasida, toza havo takibidagi suv bug'lari yerib H_2S_4 ga, keyin esa, yana havodagi metal changlari ta'sirida havoga Me SO_4 shakliga aylanadi:



Demak atmosfera havosiga tushgan zararli moddalarning uzoq vaqt davomida saqlanib turishi, ularning zaharlik darajasini orttiradi. Shuning uchun hosil bo'layotgan zaharli moddalarni ushlab qolish ya'ni tozalab olish chora tadbirlarini ko'rish lozim. Atmosfera havosining ifloslanishida quyidagi oqibatlar kelib chiqishi mumkin:

- Tirik mavjudodlar uchun zarur bo'lgan toza havoning sifati buzilishi.
- Insonlar salomatliginining yomonlashishi, turli kasaliklarning ko'payishi.
- Kislotali yomg'irlarni yog'ishi natijasida ohakli, marmar, metall qoplamali qurilish inshootlarini yemirilishi.
- Karbonat angidridning ko'payishi natijasida iqlimni isishi (parnik effekti).
- Oltingurgut (IV) oksidini ortishi hisobiga iqlimni sovib ketishi (alibedo effekti).

- Freon gazini havoga tushishi natijasida ozon qalamining yemirilishi.
Mazkur holatlarni oldini olish uchun Tabiatni muhofaza qilish qo'mitalari tomonidan quyidagi ishlar amalga oshirilishi lozim.
- Oziq-ovqat mahsulotlari: meva, sabzavot va poliz ekinlari etishtirishda zaharli kimyoviy moddalar va azot selitrasining me'yoridan ortiqcha ishlatilishini taqiqlash;
- Shahar, tuman markazlari va aholi yashash joylaridagi mavjud axlatxonalarni loyiha asosida qayta qurish;
- Shaharlarda qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash uchun axlatni qayta ishlovchi zavod loyihasining texnik-iqtisodiy asoslarini ishlab chiqish;
- Lyuminesient lampalarini demerkurizasiyalash qurilmasini tashkil etish;
- Zararkunandalarga qarshi viloyatda mavjud ishlab turgan biolaboratoriya, biofabrikalar ishni rivojlantirish, kengaytirishi va entomologiya xizmatini kuchaytirish;
- Shaharlarga kirish joylaridagi DAN maskanlari qoshida ekotrans-nazorat punktlarini tashkil qilish;
- Atmosfera havosining ifloslanishini avtomatik kuzatish punktlarini zamonaviy jihozlar bilan ta'minlashni tashkil qilish;
- Avtomobillar jihozlarining texnik sozligi va xavfsizligi sinovidan o'tkazish;
- Sement changini ushlab qolish uchun mo'ljallangan elektr filtrlari, sement changini bostirish kompressorlari o'rnatish, sement pechlarida texnologik jarayonlarni avtomatik boshqarishni nazorat qilish tizimini joriy etish;
- Yer osti suv sathini sug'oriladigan tumanlarda pasaytirish;
- Atrof-muhit holati to'g'risida OAVlari orali ma'lumot berib borish;
- Uzluksiz ta'lim tarbiya tiziini tashkil etish, uslubiy qo'llanmalar va darsliklar ishlab chiqish;

Chiqindi gaz tarkibidagi zararli birikmalarning xarakteriga qarab ularni tozalash usullari uch turga bo'linadi: suyuqliklar yordamida absorbsiyalash, qattiq yutuvchlar yordamida adsorbsiyalash va katalitik tozalash.

Atmosfera havosining toza, musaffo bo'lishi insonning xo'jalik faoliyati bilan bog'liq bo'lib, yirik shahar va sanoat ob'ektlarida havoni tozalash sohasida turli chora-tadbirlar ishlab chiqilgan hamda amaliyotga tadbiiq etilgan. Atmosfera havosi vaqti-vaqti bilan o'zini tozalab, havo tarkibiga qo'shilgan gaz va mexanik zarralar atmosferada tarqaladi,qor, yomg'irlarga qo'shib ketadi.

Hozirgi vaqtda sanoat tarmoqlaridan atmosferaga chiqadigan gazlarni tozalashda turli chang va mayda zarralami tutib qoladigan,oddiy filtrli uskunalardan foydalanilib, mazkur uskunarlar arzon energiya hisobiga havodagi juda mayda chang zarralarini quruq holda tutib turadi. Iflos gaz va chang qo'shilmalari elektr filtrlar orqali ushlanib, kam elektr energiyasi sarflash oqibatida soatiga millionlab kub metr havo iflos qo'shilmalardan toza bo'lmoqda.

O'zbekistonda sanoat ob'ektlarini qayta qurish va ularga o'rnatilayotgan uskunarlar, korxona mahsulotlarini tejab, atrof-muhit ifloslanishini oldini olmoqda.Shuning uchun ko'pgina sanoat korxonalari shahardan tashqarida shamol yo'nalishini puxta o'rganilgan holda qurilib, korxona atrofidagi keng maydonlarda daraxtzorlarda barpo etilmoqda.Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga asoslanib, quyidagi taklif-mulohazalami kiritish mumkin:

- Navoiy shahri Respublikadagi sanoati eng yuksak darajada rivojlangan hududlardan biri ekanligini inobatga olib, shahar hududida joylashgan barcha sanoat korxonalari atmosferaga juda katta miqdordagi chiqindilarni chiqarib, hududdagi ekologik holatni murakkablashishiga olib kelishini nazorat qilish zarur;
- Sanoat chiqindilari turli yo'llar bilan tuproqqa tushishi natijasida uning erroziya holati kuzatilishi mumkin;
- Navoiy shahrida ekologik muhitni yaxshilash, sanoat chiqindilarini kamaytirish maqsadida sanoat korxonalari doimiy nazoratda ushlanishi lozim;

- Shahar hududida joylashgan barcha sanoat korxonalarinin sex va bo`limlari eng yangi, zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlanmog`i, chiqindilar chiqarilishining oxirgi nuqtalarida mustahkam fil`trlar o`matilmog`i lozim;
- Chiqindilarni qayta ishlash texnologiyalari yaratilib, tabiiy muhit uchun zararsiz mahsulotlarga aylantirilmog`i maqsadga muvofiq;
- Sanoat korxonalari atrofi qalin daraxtzor bog`lar bilan o`ralmog`i, ayniqsa, changni o`ziga yutuvchi terak, chinor kabi daraxtlar bilan ihota qilinmog`i lozimdir;
- Sanoat chiqindilaridan tashqari suv va shamol kabi tabiiy omillar ham tuproq erroziyasini keltirib chiqarishi mumkinligini bilgan holda sug`orish tarmoqlariga alohida e`tiborni qaratish lozim;
- Har qanday ta`sirlar natijasida kelib chiqadigan erroziya jarayonlari tuproqning tabiiy unumdorligi va hosildorligini pasayishiga olib kelishini unutmasligimiz lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. I.A.Karimov “O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va tarqqiyot kafolatlari”, T.; O`zbekiston 1997, 112-120 b.
2. I.A.Karimov “Biz kelajagimizning o`z qo`limiz bilan quramiz”, 7-jild T.O`zbekiston 1999, 121-135 b.
3. I.A.Karimov “Avesto kitobining 2700 yilligiga bag`ishlab barpo etilgan yodgorlik majmuining ochilishi marosimidagi nutqi”, Xalq so`zi – 2001 yil 6 noyabr
- 4.T.Mirzayev., Z.G`ofurov. “Tabiatni e`zozlash-umumbashariy muammo” T.Yangi asr avlodi,2001y 256-268 b.
5. G.D.Shamsidinova.,D.A.Karimova “Ekologik muammolar” Navoiy, 2007 y 210b.
- 6.P.Sultonov. “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish asoslari” T.Musiqa,2007
7. G.D.Shamsidinova.,D.A.Karimova “Kimyoviy ekologiya” T.Voris nashriyot,2008 y 199b
8. G.D.Shamsidinova.,D.A.Karimova., A.Ilyosov. “Gidroekologiya” T.Lider Press,2009 y, 207 b.
9. G.D.Shamsidinova.,D.A.Karimova “Kimyoviy ekologiya” T.”Fan va texnologiya” nashriyoti. 2010-yil, 234 b.

